



OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR KONTEKSTIDA NIZOLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Rasulova Iroda Mansurovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti v.v.b.

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

rasulovairoda860504@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada shaxslararo munosabatlar kontekstida yuzaga keladigan nizolar va ularning ijtimoiy-psixologik determinantlari tahlil qilinadi. Oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar sifatida shaxsiy xususiyatlar, ota-onaning psixologik holati, emotsional barqarorlik darajasi, ijtimoiy ko'nikmalar, shuningdek, bolalarning xulq-atvori va rivojlanish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada oilaviy zo'ravonlikning shakllanish mexanizmlari, avlodlararo uzatilish jarayoni hamda ijtimoiy izolyatsiya va kommunikatsiya muammolarining ta'siri yoritilgan. Shuningdek, oilaviy muhitda konfliktlarni boshqarish va zo'ravonlikning oldini olishda psixologik omillarning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Oila, shaxslararo munosabatlar, nizolar, ijtimoiy-psixologik determinantlar, zo'ravonlik, psixologik omillar, oilaviy muhit, kommunikatsiya, stress, avlodlararo zo'ravonlik.

КОНФЛИКТЫ В КОНТЕКСТЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ И ИХ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ

Аннотация. В данной статье анализируются конфликты, возникающие в контексте межличностных отношений в семье, и их социально-психологические детерминанты. В качестве основных факторов, вызывающих семейные конфликты, рассматриваются личностные особенности, психологическое состояние родителей, уровень эмоциональной устойчивости, социальные навыки, а также поведенческие и развивающие особенности детей. В статье освещаются механизмы формирования семейного насилия, процесс межпоколенной передачи, а также влияние социальной изоляции и проблем коммуникации. Также обосновывается значение психологических факторов в управлении конфликтами в семейной среде и предотвращении насилия.

Ключевые слова. Семья, межличностные отношения, конфликты, социально-психологические детерминанты, насилие, психологические факторы, семейная среда, коммуникация, стресс, межпоколенное насилие.

CONFLICTS IN THE CONTEXT OF INTERPERSONAL RELATIONS WITHIN THE FAMILY AND THEIR SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS





Abstract. This article analyzes conflicts arising in the context of interpersonal relations within the family and their socio-psychological determinants. The main factors causing family conflicts include personality traits, parents' psychological state, level of emotional stability, social skills, as well as behavioral and developmental characteristics of children. The article highlights the mechanisms of family violence formation, the process of intergenerational transmission, and the impact of social isolation and communication problems. It also substantiates the importance of psychological factors in conflict management within the family environment and in preventing violence.

Keywords. Family, interpersonal relations, conflicts, socio-psychological determinants, violence, psychological factors, family environment, communication, stress, intergenerational violence.

Kirish.

Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida shaxsning psixologik rivojlanishi, xulq-atvori va ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Biroq oilada shaxslararo munosabatlar har doim ham barqaror va ijobiy kechavermaydi. Turli ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar ta'sirida oilaviy nizolar yuzaga keladi, bu esa o'z navbatida zo'ravonlik holatlarining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy zo'ravonlik faqat individual muammo emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, uning shakllanishida shaxsiy xususiyatlar, oilaviy muhit, ijtimoiy sharoit va kommunikativ ko'nikmalarning darajasi muhim determinantlar sifatida ishtirok etadi. Ota-onalarning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi, empatiya darajasi hamda konfliktlarni hal etish ko'nikmalari oiladagi munosabatlar sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

Shuningdek, oilada bolalarning xulq-atvori ham nizolar va zo'ravonlikning yuzaga kelishida muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqotlar bolalarning ayrim xususiyatlari — masalan, giperaktivlik, impulsivlik, talabchanlik yoki sog'liq muammolari — ota-onada stress va salbiy emotsional reaksiyalarni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunday holatlar oilaviy tizimda ziddiyatlarning chuqurlashishiga olib keladi.

Bundan tashqari, avlodlararo zo'ravonlik, ijtimoiy izolyatsiya, oilaviy rollarning noaniqligi va er-xotin munosabatlaridagi muammolar ham oilaviy nizolarni kuchaytiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Zo'ravonlikning takrorlanish mexanizmi esa ko'pincha oilada o'zaro muloqotning buzilishi va samarali psixologik qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi bilan bog'liq bo'ladi.

Asosiy qism. Har bir inson, ya'ni har bir bola, har bir erkak va har bir ayol zo'ravonliksiz hayot kechirish huquqiga ega. Bu asosiy inson huquqi BMTning Inson huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida, Yevropa Inson huquqlari konvensiyasida hamda ayrim davlatlarning asosiy qonunchiligida mustahkamlangan.

Ba'zi mamlakatlarda, masalan Avstriyada 1997-yildan, Germaniyada esa 2002-yildan [8] boshlab insonlarni o'z uyida zo'ravonlikdan himoya qiluvchi qonunlar amal





qiladi. Bu qonunlarda shaxsiy hayotdagi zo‘ravonlik, ya’ni oila a’zolari, er-xotin yoki sheriklar o‘rtasidagi zo‘ravonlik ham jamoat joylaridagi zo‘ravonlik kabi jazolanishi tushuntiriladi. “Kim boshqasini ursa, u uydan chiqib ketishi kerak” - bu zo‘ravonlikdan himoya qilish qonunining umumiy mazmunini ifodalaydi.

Bu shuni anglatadiki, endi zo‘ravonlikka uchragan shaxs uydan qochib ketishi yoki yashirinishga majbur emas, masalan ayollar boshpanasiga borishi shart emas. Aksincha, agar xavf mavjud bo‘lsa, zo‘ravonlik qilgan shaxsni politsiya uydan chiqarib yuboradi. Jabrlanuvchi tomon sud orqali zo‘ravonga uyga qaytishni va uy tashqarisida unga yaqinlashishni taqiqlashni talab qilishi mumkin. Agar u ushbu taqiqni buzsa, yanada qattiqroq jazoga tortiladi.

Bolalarga nisbatan oilada zo‘ravonlik ham taqiqlangan. Bolaning zo‘ravonlikdan himoyalaniish va zo‘ravonliksiz tarbiya olish huquqi BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida va ayrim davlatlarning qonunchiligida mustahkamlangan. Masalan, Germaniya va Avstriyada bolaga nisbatan zo‘ravonlik qilayotgan ota-onani sud qarori bilan uydan chiqarib yuborish mumkin.

Agar ota-onadan bola salomatligi, hayoti va normal rivojlanishiga xavf tug‘ilsa, oilaviy sud bunday ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilishi mumkin.

Shaxsga tan jarohati yetkazgan, uning sog‘lig‘i yoki erkinligiga qasddan zarar yetkazgan shaxsga sud, jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra va jabrlanuvchi uchun xavf mavjud bo‘lsa, quyidagilarni taqiqlashi mumkin:

1. Jabrlanuvchining uyiga kirish;
2. Jabrlanuvchi yashaydigan joyga ma’lum masofagacha yaqinlashish;
3. Jabrlanuvchi muntazam boradigan joylarga tashrif buyurish;
4. Jabrlanuvchi bilan aloqa qilish, jumladan shahar yoki mobil telefon orqali;
5. Jabrlanuvchi bilan uchrashishga harakat qilish.

Zo‘ravonlik holatlari bilan ishlashdagi psixologik qiyinchiliklar

Zo‘ravonlik holatlari bilan duch kelish emotsional jihatdan og‘ir hisoblanadi. Ko‘pincha zo‘ravonlikka duch kelganda birinchi reaksiya norozilik reaksiyasi bo‘ladi: “Bu bo‘lishi mumkin emas, bu haqiqat emas”.

Krizis markazlarida ishlaydigan mutaxassislar zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Birinchi qiyinchiliklardan biri — zo‘ravonlik bilan bog‘liq **miflardir**.

Zo‘ravonlik haqidagi miflar juda keng tarqalgan bo‘lib, biz ulardan faqat ayrimlarini misol sifatida keltiramiz.

Mif	Haqiqat
Hozirgi vaqtda oiladagi zo‘ravonlik kam uchraydigan hodisa. U o‘tmishda qolgan, chunki avval axloq qattiqroq edi.	Ichki ishlar vazirligi statistikasiga ko‘ra, eng ko‘p sodir etiladigan jinoyatlar oilaviy-maishiy munosabatlar asosida sodir etiladi. Rossiyada yiliga 14 minggacha ayol erlari yoki sheriklari qo‘lidan halok bo‘ladi.





Zo‘ravnlik faqat past ijtimoiy mavqega ega oilalarda uchraydi.	Zo‘ravnlik turli ijtimoiy mavqega ega va turli ta’lim darajasidagi oilalarda ham uchrashi mumkin. Farqi shundaki, past mavqeli oilalardagi zo‘ravnlik ko‘proq ko‘zga tashlanadi, yuqori mavqeli oilalarda esa u ko‘proq yashiriladi.
Er va xotin o‘rtasidagi janjallar har doim bo‘lgan. “Urishib turishadi, bu ham odatiy hol.”	Oiladagi zo‘ravnlik odatda janjal va nizolardan boshlanadi. U tanqid, kamsitish, izolyatsiya, shapaloq, zarbalar va muntazam kaltaklashgacha rivojlanishi mumkin. Zo‘ravnlik bosqichma-bosqich kuchayadi va uni to‘xtatish tobora qiyinlashadi, ba’zan o‘lim bilan tugaydi.
Zo‘ravnlikning sababi alkogolizm.	Zo‘ravnlikning katta qismi alkogol ta’sirida sodir bo‘lishi mumkin, biroq qonun bo‘yicha mastlik holati jazoni og‘irlashtiruvchi omil hisoblanadi. Zo‘ravnlik uchun alkogol emas, uni sodir etgan shaxs javobgardir. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini olib boradigan zo‘ravnlar ham mavjud.
Oiladagi zo‘ravnlik, agar mavjud bo‘lsa ham, oilaning shaxsiy ishi.	Oiladagi zo‘ravnlik — bu jinoyat hisoblanadi. Ko‘plab mamlakatlarda u eng og‘ir jinoyatlar qatoriga kiradi. Zo‘ravnlikni erta bosqichda to‘xtatish orqali vaziyatni yaxshilash mumkin.

Bu jamiyatda mavjud bo‘lgan oilaviy zo‘ravnlik haqidagi miflarning faqat bir qismidir. Eng muhim miflardan biri - “zo‘ravnlik bu oilaning shaxsiy ishi” degan qarashdir. Ushbu mif saqlanib qolgan ekan, zo‘ravnlikdan jabrlanganlar tashqaridan yordam olishda katta qiyinchilikka duch keladilar.

Shu sababli bu miflarni yo‘qotish, oilaviy zo‘ravnlik muammosi haqida ko‘proq gapirish va jabrlanganlarga yordam beruvchi xizmatlar haqidagi ma’lumotlarni keng tarqatish juda muhim hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Oilaviy tuzilma va shaxslaro munosabatlar bilan bog‘liq xavf omillari

Brovne (1988) va Straus (1980) [7] tadqiqotlari natijasida bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatga olib keluvchi omillar va shartlar aniqlangan:

1. Ota-onasi yolg‘iz bo‘lgan oilalar va ko‘p farzandli oilalar

To‘liq bo‘lmagan oilalarda odatiy oilalarga qaraganda stressni boshdan kechirish uchun ko‘proq sharoitlar mavjud (moliyaviy qiyinchiliklar, bo‘sh vaqtning yetishmasligi, har bir bolaga teng e’tibor berilmasligi va boshqalar). Qo‘shimcha





murakkab omil — oilaning beqarorligi bo‘lib, bunda ona tez-tez yangi hamrohlar almashtiradi, bu esa oilaviy tizimning shakllanishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

2. O‘gay ota yoki farzandlikka olingan ota-onalar

Finkelhor [4] fikriga ko‘ra, o‘gay otasi bo‘lgan oilalarda qiz bolaga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik xavfi ortadi.

3. Oila a‘zolari o‘rtasidagi nizoli yoki zo‘ravon munosabatlar

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar o‘zaro nizolarni zo‘ravonlik orqali hal qilsa, ular bolalarga nisbatan ham shu usulni qo‘llashga moyil bo‘ladilar. Eridan zo‘ravonlik ko‘rgan ayollar ko‘pincha o‘z farzandlariga ham zo‘ravonlik ko‘rsatadi. Ota-onalar o‘rtasida hokimiyat teng taqsimlanmagan, haddan tashqari nazorat (gipervasiyalash) mavjud bo‘lgan oilalarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik ehtimoli yuqori bo‘ladi. Shuningdek, oilaviy rollar aniq belgilanmagan, tarbiya talablari esa bir-biriga zid va beqaror bo‘lgan oilalarda ham xavf yuqori hisoblanadi. Bunday oilalarda hissiy aloqa va kommunikatsiya zaif bo‘lib, bu past darajadagi oilaviy birlashuvga olib keladi [3]

4. Er-xotin o‘rtasidagi muammolar

Jinsiy qoniqmaslik, hissiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi va boshqa muammolar ayolning psixologik holatiga ta‘sir qiladi va oxir-oqibat uning farzandlar bilan munosabatlariga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Coohey [1] fikriga ko‘ra, eri bilan munosabatidan qoniqmagan yoki tashlab ketilgan ayol ko‘pincha farzandiga mehr va yaqinlik ko‘rsata olmaydi.

Lynch [5] tadqiqotlariga ko‘ra, rashkchi otalar bolani raqib sifatida qabul qilib, uni hissiy jihatdan rad etishi va bola o‘rniga ona muhabbati uchun kurashishi mumkin.

5. Avlodlararo zo‘ravonlikning uzatilishi

Bolaligida zo‘ravonlikni boshdan kechirgan yoki guvohi bo‘lgan ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan ham zo‘ravonlikka moyil bo‘ladilar. Ular uchun zo‘ravonlik — ijtimoiy muammolarni hal qilishning odatiy usuliga aylangan bo‘ladi.

Bunday ota-onalarda past o‘z-o‘zini baholash, ijtimoiy izolyatsiya, doimiy stress, yaqin munosabatlarni o‘rnatishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Bolalikdagi travmatik tajriba ularning ota-onalik kompetensiyasini pasaytiradi. Biroq ayrimlar hissiy qo‘llab-quvvatlashni olgan bo‘lsa, bu “zo‘ravonlik zanjiri”ni uzishga muvaffaq bo‘lishi mumkin.

6. Ota-ona va bola munosabatlari muammolari

Agar ota-ona va bola o‘rtasida bog‘liqlik (emotsional yaqinlik) shakllanmasa, zo‘ravonlik xavfi ortadi. Bunday oilalarda bolada mustaqillik va yaqin munosabatlarni shakllantirishda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi, chunki u ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganish uchun yetarli sharoit va namunalarga ega bo‘lmaydi.

Bu holat narkomaniya, toksikomaniya, alkogolizm bilan bog‘liq oilalarda, ota-onalar va o‘smirlar o‘rtasida destruktiv munosabatlar mavjud oilalarda, to‘liq bo‘lmagan va jinoyatchilikka moyil oilalarda, shuningdek jinsiy jinoyatlar sodir etgan shaxslar oilalarida o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.





7. Oilaning emotsional va jismoniy izolyatsiyasi

Izolyatsiya — bu ijtimoiy aloqalarning yo‘qligi, rasmiy va norasmiy qo‘llab-quvvatlashning mavjud emasligi bilan namoyon bo‘ladi. Ota-onalar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning sifati miqdordan muhimroqdir [6].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlik qo‘llaydigan onalarning ko‘pchiligi muammolarini ishonib aytadigan yoki yordam so‘raydigan yaqin insonlarga ega emas. Ko‘pincha ular o‘z onalari bilan ham yaxshi munosabatga ega bo‘lmagan bo‘lishadi, bu esa onalik rolining shakllanishiga ta’sir qiladi. Bolani vaqtincha kimga qoldirish imkoniyati bo‘lmaydi, otalar esa tarbiyada faol ishtirok etmaydi. Bunday ota-onalar ijtimoiy yordam imkoniyatlarini bilmaydi va qo‘llab-quvvatlash topishda ojiz bo‘ladilar.

Ota-onaning shaxsiyati bilan bog‘liq xavf omillari

1. Ota-onaning shaxsiy xususiyatlari

Zo‘ravonlik xavfi ota-onada quyidagi psixologik xususiyatlar mavjud bo‘lsa ortadi: rigidlik (qat’iylilik), ustunlikka intilish, xavotirchanlik, tez jahli chiqish (ayniqsa bolaning provokatsion xatti-harakatlariga javoban), past o‘z-o‘zini baholash, depressiv holat, impulsivlik, qaramlik, past empatiya va ochiqlik darajasi, past stressga chidamlilik, emotsional beqarorlik, tajovuzkorlik, o‘zini ichiga tortish, shubhalanuvchanlik va o‘zini identifikatsiya qilish bilan bog‘liq muammolar [3].

2. Ota-onaning atrofdagilarga salbiy munosabati va bolaga nisbatan noto‘g‘ri ijtimoiy kutishlar

Bunday holatda ota-onalar bolaning xatti-harakatlarini kuchli stress omili sifatida qabul qiladilar. Ular qoniqmaslik va salbiy o‘zini his qilish bilan ajralib turadi. O‘zlarini baxtsiz, oilaviy hayotidan norozi va doimiy stress ostida deb his qiladilar.

3. Ijtimoiy ko‘nikmalarning past darajasi

Muzokara olib borish, nizolar va muammolarni hal qilish, stressni boshqarish, boshqalardan yordam so‘rash ko‘nikmalari mavjud emas. Shu bilan birga, psixologik himoya mexanizmlari ishlaydi — muammo inkor etiladi, yordam qabul qilinmaydi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik oilaviy sirga aylanadi va u ehtiyotkorlik bilan yashiriladi, ochiq muhokama qilinmaydi, chunki bu qo‘rquv, ayblash, uyat va aybdorlik hissini keltirib chiqaradi.

4. Ota-onaning psixik salomatligi

Yaqqol psixopatologik og‘ishlar, asabiylik, depressiya va o‘z joniga qasd qilishga moyillik bolalarga nisbatan zo‘ravonlik xavfini oshiradi.

5. Ota-onalarning alkogolizm va narkomaniyasi

Bundan kelib chiqadigan psixofarmakologik muammolar va affektiv buzilishlar: tajovuzkorlik, giperseksuallik, jahldorlik, koordinatsiya buzilishi, xulq-atvor ustidan nazoratning pasayishi, tanqidiy fikrlashning kamayishi, shaxsiyat o‘zgarishlari va boshqa muammolar.

6. Sog‘liq bilan bog‘liq muammolar

Lynch [5] fikriga ko‘ra, patologik kechadigan homiladorlik, to‘xtatilgan homiladorlik va og‘ir tug‘ruqlar zo‘ravonlik xavfini oshiradi. Bular asab tizimiga ta’sir qilib, ayolni stressga chidamsiz qiladi.





7. Emotsional sustlik va aqliy rivojlanishning pastligi

Ota-ona ba'zan ayniqsa kasal bolaning holatini, kasallik jarayonini va uning oqibatlarini tushunmaydi, natijada bolani zarur yordamdan mahrum qilishi mumkin [6].

8. Ota-onalik ko'nikmalari va hissiyotlarining rivojlanmaganligi

Ota-onalik hissi va ko'nikmalarining yetishmasligi ko'pincha yosh, aqliy rivojlanishi past yoki ruhiy kasallikka chalingan ota-onalarda uchraydi. Yosh ota-ona doimiy xavotir va qo'rquv tufayli asabiy bo'ladi, talablarni bajara olmaslikdan qo'rqadi. Depressiya va xavotir stressga chidamlilikni pasaytiradi va tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishni qiyinlashtiradi [7].

Nerv-psixik buzilishlari bo'lgan ota-onalarda o'ziga nisbatan ishonchsizlik va xavotir ko'proq bo'ladi. Zo'ravonlik ko'rsatadigan ota-onalarda bolalarning agressiv xulqini boshqarish ko'nikmalari ko'pincha bo'lmaydi. Ular o'z agressiya va g'azabini nazorat qila olmaydi, bolaning ehtiyojlarini tushunmaydi, uning qobiliyatlarini baholay olmaydi va natijada bola bajara olmaydigan talablar qo'yadi.

Nazoratni yo'qotishdan qo'rqib, yosh ota-onalar ko'pincha avtoritar tarbiya usulidan foydalanadilar va jazoni bolani tuzatish vositasi sifatida ko'radilar. Ba'zan bu boshqa usullarni bilmaslik bilan bog'liq bo'ladi. Ayrim ota-onalar bola ularning emotsional ehtiyojlarini qondirish uchun mavjud deb hisoblaydi: u itoatkor, mehribon, sezgir bo'lishi, ularni xafa qilmasligi, sevishi va quvontirishi kerak deb o'ylaydi. Shu tariqa bolalik muammolari uchun javobgarlik bolaga yuklanadi, kattalarning roli esa inkor etiladi.

Bolaning shaxsi zo'ravonlik omili sifatida

Bir qator tadqiqotlar ota-onada norozilik, jahldorlik va uning natijasida zo'ravonlikka sabab bo'ladigan bolalarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlagan.

Lynch [5], Lystad, Straus va boshqalarning fikricha, quyidagi psixik va jismoniy rivojlanish muammolariga ega bolalar zo'ravonlik qurboniga aylanish xavfi yuqori hisoblanadi:

- ota-onasi istamagan bolalar, shuningdek avvalgi farzandining yo'qotilishidan so'ng tug'ilgan bolalar;
- muddatidan oldin tug'ilgan, tug'ilganda vazni past bo'lgan bolalar;
- farzandlar orasidagi tug'ilish oralig'i qisqa bo'lgan, ko'p farzandli oilalardagi bolalar;
- tug'ma yoki orttirilgan nuqsonlari, past intellekt, sog'liq muammolari (irsiy sindromlar, surunkali, jumladan ruhiy kasalliklar) bo'lgan bolalar;
- xulq-atvor buzilishlari bo'lgan bolalar (asabiylik, jahldorlik, impulsivlik, giperaktivlik, oldindan aytib bo'lmaydigan xulq, uyqu buzilishi, enurez);
- shaxsiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan bolalar (talabchan, to'ymaydigan, ichiga tortilgan, befarq, qaram, oson ta'sirlanadigan);
- ota-onani asabiylashtiradigan odatlarga ega bolalar;
- past ijtimoiy ko'nikmalarga ega bolalar;
- tashqi ko'rinishi boshqalardan farq qiladigan yoki ota-onasi qabul qila olmaydigan bolalar (masalan, “keraksiz jins”dagi bola);





• homiladorlik va tug‘ruq jarayoni onaga og‘ir kechgan, tez-tez kasal bo‘lgan yoki hayotining birinchi yilida onadan ajratilgan bolalar.

Bolaning agressiv xulqi, og‘ir xarakteri va alohida ehtiyojlari (masalan, autizmda parvarish, MMDda diqqat tarqoqligi, harakatchanlik kabi holatlar) oilada stressni oshiradi va bolaga nisbatan zo‘ravonlik ehtimolini kuchaytiradi.

Ayniqsa, ota-onaning agressiv yoki alohida ehtiyojli bola bilan muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhimdir. Ular paydo bo‘ladigan taranglikni to‘g‘ri va konstruktiv usullar bilan bartaraf eta olishlari kerak. Ko‘pincha “qiyin” bolalar maktabda ham, uyda ham takroriy zo‘ravonlik qurboniga aylanishadi.

Shunday qilib, bolaga nisbatan zo‘ravonlikni ijtimoiy-madaniy va psixologik kontekstda ko‘rib chiqish zarur bo‘lib, profilaktika, aniqlash va reabilitatsiya jarayonlarida buni hisobga olish lozim. Shuningdek, zo‘ravonlikka olib keluvchi omillar har doim atrof-muhit, oila va individual darajadagi kompleks ta‘sir natijasi ekanini unutmaslik kerak.

Xulosa. Oilada shaxslararo munosabatlar kontekstida yuzaga keladigan nizolar ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, u shaxsiy xususiyatlar, ota-onaning emotsional holati, ijtimoiy ko‘nikmalar darajasi hamda bolalarning xulq-atvori va rivojlanish xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhitdagi stress, kommunikatsiya buzilishi va emotsional barqarorlikning pastligi nizolarning kuchayishiga hamda ba’zi hollarda zo‘ravonlikning shakllanishiga olib keladi.

Shuningdek, avlodlararo zo‘ravonlik, ijtimoiy izolyatsiya va oilaviy rollarning noaniqligi kabi omillar ham nizolarni chuqurlashtiruvchi muhim determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa oilada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish va konfliktlarni konstruktiv tarzda hal etish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, oilaviy nizolarni o‘rganish va ularning ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish hamda samarali psixologik yordam tizimini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Забелина Т.А. Женщина и насилие.- М.: ЭКСМО-Пресс, 1995. - 105 с.
2. Забелина Т.Ю., Израелян Е.В. Достижения и находки: кризисные центры России. - М.: Пресс-Соло, 1999. - 204 с.
3. Зиновьева Н.О., Михайлова Н.Ф. Психология и психотерапия насилия. Ребенок в кризисной ситуации. -СПб.: Речь, 2003. -248 с.
4. Луковцева З.В. Сексуальное насилие: мифы, факты, современное состояние проблемы // Насилие и социальные изменения. - 2000 - № 1 - с 16-20.
5. Мельниченко С.А. Предотвращение жестокости по отношению к женщинам и детям // Семья в России. 1995. №2. Международная Конвенция о правах ребенка от 20 ноября 1989 года № 44/25 // www.un.org/russian, рубрики «права человека», «конвенции». Насилие в семье - как бороться с ним государству. -М.: Глас, 1999. -191с. Офиц. сайт МВД РФ. // www.mvd.ru





6. Писклакова М.П., Синельников А.С. Между молчанием и криком. История, культура, политика и домашнее насилие. - М.: Эслан, 2004 – 208.
7. Предотвращение насилия в семье (опыт регионов). – М.: Генезис, 2005 – 126 с. Психологическая помощь пострадавшим от семейного насилия. Научно-методическое пособие. – М.: ГосНИИ семьи воспитания, 2000. – 160 с.
8. Социально-психологическая помощь детям-жертвам семейного насилия (сборник научно-методических материалов). – М.: Оргсервис 2000, 2005. – 124 с.
9. Турасова Н.В. Психологическая реабилитация детей – жертв инцеста // Семейная психология и семейная терапия – 1997.- № 2. – С. 106-110.

